

O'ZBEKISTONDA

FANLARARO INNOVATSIYALAR

VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

2024
20-Sentyabr

ISSN: 2181-3302

6.618

2024 Impact Factor

Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities



32-SON

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA
ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

20.09.2024



“O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR” JURNALI



«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma'rifat markazi ©

MATERIALLARI TO'PLAMI

20-SENTABR, 2024-YIL

32-SON

O'ZBEKISTON

2024





Ushbu to'plamda "O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali" ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va echimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir:

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul muharrir:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

Mas'ul kotib:

Hakimov Iqboljon
Farg'ona Politehnika instituti

Texnik xodim:

Sultonov Sardorbek No'monjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sabirova Gulnoza Sadikovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ayrapetova Alyona Gennadevna

*Amir Temur nomidagi O'zbekiston respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi.
Psixologiya fanlari doktori (DSc)*

Mamatova Nodira Muxtarovna

Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)

Rasulova Vasila Batirovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nikadambayeva Hilola Batirovna

*Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

*Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari
nomzodi, Dotsent*

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Baltayeva Ikbal Tadjibayevna

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*

Sayfullayeva Ra'noxon Raupovna

O'zbekiston milliy universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Popova Tatyana Igorevna

SanktPeterburg davlat universiteti. Rossiya.Doctor filologicheskix nauk, professor.

Berdaliev Abduvali

Tojikiston. Xo'jand davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Manzuraxon Ernazarova

Navoi davlat pedagogika instituti.Filologiya fanlari doktori, professor.

Uluqov Nosirlon Muxammadalievich

Namangan davlat universiteti.Filologiya fanlari doktori.

Jumanazarova Guljahon

Filologiya fanlari doktori. Jizzax davlat universiteti.

A.A.Qosimov



Farg'ona davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Jo'rayev Habibullo Abdusalomovich

Filologiya fanlari doktori. Farg'ona davlat universiteti.

Fayzimatov Shuxratjon No'monovich

Farg'ona politexnika instituti. Texnika fanlari doktori.

Hoshimov G'anijon Mirzaaxmadovich

Andijon davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Hulkar Hamroyeva

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O'zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi a'zosi, jurnalist.

O'rinboyev No'monjon O'rmonovich

falsafa fanlari nomzodi, dotsent. XTXMOIO'

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. Farg'ona davlat universiteti.

Qunduzxon Atabayevna

Filologiya fanlari doktori, professor. O'zbekiston. Jahon tillari universiteti.

Hojaliyev Ismoiljon Tojiboyevich

Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Erofeeva Inna Nikolaevna

Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.

Toshtemirova Zamira Sotvoldiyevna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg'ona davlat universiteti.

G.O. Abdugafurovich

Filologiya fanlari nomzodi. Farg'ona davlat universiteti.

Xudayarov Oybek Odilovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Muxitdinova Muniraxon

Pedagogika fanlari fanlari doktori, (PhD)

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna

Urganch davlat universiteti, Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodu, dotsent

Djumaniyazova Yulduzoy Abdusharipovna

Urganch davlat universiteti, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va IPKT bo'limi boshlig'i, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, agrokimyo fanlari dotsenti

Ismayilova Intizar

Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrası, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Latipova Umida Yusufboyevna

Urganch davlat universiteti. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Nurullayeva Manzura Shavkatovna

Urganch Davlat universiteti "Biologiya" kafedrası dotsenti, qishloq xo'jalik fanlari doktori (PhD)

Alloberganova Zebo Bekmamatovna

Urganch Davlat universiteti tabiiy va qishloq xo'jaligi fanlari fakulteti Biologiya kafedrası, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Babadjanova Zamira Khikmatovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası dots. nti, tibbiyot fanlari doktori (DSc).

Matyakubova Yulduzhon Amanbayevna

Urganch Davlat universiteti tabiiy va qishloq xo'jalik fanlari fakulteti Biologiya kafedrası, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Ochilova Vaziraxon Rustamovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, ingliz tili fakulteti 1, ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi, Pedagogika fanlari doktori (PhD)

Abdurakhimov Mingzhigit Kattabekovich

Samarqand Davlat universiteti agrotexnologiya va Tuproqshunoslik kafedrası professori



MUNDARIJA:		
1.	Mamarasulova Iroda Jumanovna <i>TERMINOLOGIYA: MADANIYATLARARO ALOQALAR VA GLOBALIZATSIYA TA'SIRI</i>	8
2.	Rajabova M.M Aslonov B.M <i>SITALL XOMASHYOSINING FIZIK VA KIMYOVIY XUSUSIYATLARINI TAHLIL QILISH</i>	14
3.	B. B. Jumayev <i>SURXONDARYO VILOYATI O'RTA HUDUDI ISSIQXONALARIDA YETISHTIRILUVCHI LIMON NEMATODA FAUNASI TARKIBI VA TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI</i>	17
4.	Obidov Feruzbek Umurzoqovich <i>FUQAROLARNING AXBOROTGA BO'LGAN HUQUQLARINI DAVLAT TOMONIDAN HIMOYA QILINISHI VA KAFOLATLANISHI</i>	21
5.	Rahmonov O.B. <i>4K TAMOYILI ASOSIDA O'QUVCHILARNING SHAXSLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PARAMETRLARI</i>	26
6.	Hamroqulov Rasuljon Madraximovich Aliyev Abdusalom Abduraxmonovich Nazarova Mashxura Sapparbayevna <i>WORKING IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN OF LIGHT MOTOR TRANSPORTATION VEHICLES ISSUED METHODS OF DETERMINING MARKIROVKA SIGNS.</i>	31
7.	Abdullayev Lazizbek Abdulazizovich Safarov Nazirjon.Muhammadjonovich <i>POYABZAL TIKIV MOSHINALARI ISHCHI QISMLARINI YEMIRILISHI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR</i>	38
8.	Юсупова Махпуза Нумановна Нўмонов Отабек Ўрмонжон ўғли <i>ТУТ ПАРВОНАСИ ВА УНИНГ ЗАРАРИ</i>	43
9.	A.S.Xasanov <i>KIMYOVIY MAXSULOTLARNI SAQLASH OMBORLARI VA QO'YILADIGAN TALABLARI</i>	47
10.	N.X.Umurzakov <i>SUD AVTOTEXNIKA EKSPERTIZASI LABORATORIYASI</i>	54
11.	Matchanov Tohirjon Matchanovich Matchanova Ma'rifat Ikramovna <i>DIGITALIZATION OF BANKING SERVICES IN THE BANKING SYSTEM BANK TIZIMIDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH</i>	55
12.	Shermirzayeva Dilnoza Inomjon qizi <i>TILNING PAYDO BO'LISHI TO'G'RI SIDAGI NAZARIYALAR</i>	60
13.	Mirazam Meliboyev Gulsanam Makhmudova Nigora Muydinova <i>PRODUCTION OF CONFECTIONERY PRODUCTS USING RECYCLED HORTICULTURE (MELON) PRODUCTS</i>	64
14.	Dadonova Aziza Tulkunovna <i>O'QUVCHILARDA INTERNET QARAMLIGINI KELITIRIB CHIQUARUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK YONDASHUVLARI.</i>	69
15.	Сүяров А.М. <i>ИНФОРМАТИКА ДАРСЛАРИДА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРНИ ЕЧИШДА EXCEL ДАСТУРИДАН ФОЙДАЛАНИШ</i>	72
16.	Kholmuratova Makhliyo <i>IMPORTANCE OF AGE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE</i>	81
17.	Тохинова Л. Р. <i>АДАПТИВНАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СРЕДА КАК РЕСУРС ГУМАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗАХ</i>	84
18.	Rixsiboyeva Nodira <i>FORS VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI AN'ANAVIY FORMULALAR</i>	88
19.	Inoyatova M, Hayitaliyev J, Qayumova.M <i>YANGI TOLA TOZALAGICH QURILMASIDA AMALIY TADQIQOTLAR O'TKAZISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI</i>	91
20.	Shukurulloxon Najibulloxon Muxtorxon o'g'li	97



	AYLANMA BROUN HARAKATIDA MOLEKULALARDA INERSION EFFEKTLAR	
21.	Nabikhonov Nabikhon Yokubjon ugli, Aytjanova Gulayym Torabevna POSITIVE-DEFINITE MATRICES AND THEIR APPLICATIONS TO THE PROBLEMS OF INTERNATIONAL MATHEMATICAL OLYMPIADS	101
22.	Maxmudova Dilfuza Abdulazizovna, Abdullayeva Diyora Xabibulla qizi YO'L POYI NAMLIGIGA TA'SIR ETUVCHI YER OSTI SUVLARINI O'RGANISH NATIJALARI	108
23.	Mirazam Meliboyev, Gulsanam Makhmudova, Nigora Muydinova GENERAL DESCRIPTION OF DRYING AND ITS TYPES	113
24.	Mirazam Meliboyev, Gulsanam Makhmudova, Nigora Muydinova VEGETABLE AND POLYCROP CROPS: GROWING TECHNOLOGIES AND POPULAR VARIETIES	119
25.	Yuldasheva Munajatxon Babaxanova Dilarom Axmatxanovna TIL O'QITISHDA LINGVISTIK MASALALAR O'ZBEK MADANIY NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	126
26.	Mirzakanova Difuza STAGES OF DEVELOPMENT OF INTERGENERATION RELATIONS IN THE CHRISTIAN RELIGION	134
27.	Bozorboyeva Mehribon Xorazm viloyati TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING YIRIK NAMOYONDALARI VA ULARNING FAOLIYATI.	141
28.	Badalova Muazzam INGLIZ TILIDA MEVA NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI	143
29.	Мадярова Насиба Адхамовна ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ КОНЦЕПТ КАК КОМПОНЕНТ КОНЦЕПТОСФЕРЫ ПИСАТЕЛЯ	147
30.	Mamatov Avaz Agzamovich TEACHING RUNNING TECHNIQUES TO SCHOOL AGE STUDENTS	153
31.	Гүляева Г.Х, Санакулова П.Ж, Мукимов М.М ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ НОВЫХ СТРУКТУР ДВУХСЛОЙНОГО УТОЧНОГО ТРИКОТАЖА	158
32.	Гүляева Г.Х, Санакулова П.Ж, Мукимов М.М ИССЛЕДОВАНИЕ ДВУХСЛОЙНОГО УТОЧНОГО ТРИКОТАЖА НОВЫХ СТРУКТУР	162
33.	Касимов Шавкат Атхамджанович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ МУСТАҚИЛ ИЗЛАНУВЧИСИ	169
34.	Иргашев А.Ч. “ДАВЛАТ ЧЕГАРАСИНИ ҚЎРИҚЛАШ” ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МОҲИЯТИ	182
35.	Mirazam Meliboyev, Gulsanam Makhmudova, Nigora Muydinova GENERAL DESCRIPTION OF DRYING AND ITS TYPES	189
36.	Mirazam Meliboyev, Gulsanam Makhmudova, Nigora Muydinova VEGETABLE AND POLYCROP CROPS: GROWING TECHNOLOGIES AND POPULAR VARIETIES.	195
37.	Choriev Sherzod Yuldoshevich DESCRIPTION OF THE TECHNICAL RIGHT OF SPECIAL MEANS USED BY THE INTERNAL AFFAIRS BODIES	202
38.	Раупова Мохинур Хайдар кизи БУДУЩЕЕ ВЫЧИСЛЕНИЙ: КВАНТОВЫЕ АЛГОРИТМЫ В ЗАДАЧАХ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ	206
39.	Daukeyeva N. A. OLIY TA'LIMDA MATEMATIKANI O'QITISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	214
40.	Набиева Камиля Азимовна ЧЕРТЫ «НОВОГО ГЕРОЯ» В ПОВЕСТИ «СТАРИК И МОРЕ» Э. ХЕМИНГУЭЯ	218



TERMINOLOGIYA: MADANIYATLARARO ALOQALAR VA GLOBALIZATSIYA TA'SIRI

Mamarasulova Iroda Jumanovna

Jizzax Davlat pedagogika universiteti,

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til kafedrası o'qituvchisi.

Email: irodamamarasulova866@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminologiya sohasidagi asosiy tushunchalar va ularning amaliy qo'llanishi tahlil qilinadi. Terminologiya nima ekanligi, uning ilmiy va amaliy ahamiyati, hamda terminologiya ishlab chiqish va boshqarish jarayonlarini yoritadi. Maqolada, shuningdek, terminlarning aniq va tushunarli bo'lishi, shuningdek, til va fanlararo muloqotda qanday rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi.

Kalit so'zlar: terminologiya, termin, terminologik, tizim, terminologik tavsif, terminologik normalash translatsiya, terminologik munozara, semantik tahlil

ТЕРМИНОЛОГИЯ: МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ И ВЛИЯНИЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.

Мамарасулова Ирода Жумановна

Джизакский государственный педагогический университет,

Преподаватель кафедры иностранных языков дошкольного и начального образования.

Email: irodamamarasulova866@gmail.com

Аннотатсия. В данной статье анализируются основные понятия в области терминологии и их практическое применение. Объясняет, что такое терминология, ее научное и практическое значение, а также процессы развития и управления терминологией. Также в статье показана важность ясности и ясности терминов, а также роль, которую язык играет в междисциплинарном общении.

Ключевые слова: терминология, терминология, система, терминологическое описание, терминологическая нормализация перевода, терминологическое обсуждение, семантический анализ.



TERMINOLOGY: INTERCULTURAL COMMUNICATION AND THE IMPACT OF GLOBALIZATION

Mamarasulova Iroda Jumanovna

Jizzakh state pedagogical university,

a teacher of foreign language at primary and preschool education department

Email: irodamamarasulova866@gmail.com

Abstract. *This article analyzes the main concepts in the field of terminology and their practical application. Explains what terminology is, its scientific and practical importance, and the processes of terminology development and management. The article also shows the importance of clarity and clarity of terms, as well as the role that language plays in interdisciplinary communication.*

Key words: *terminology. term. terminological, system, terminological description, terminological normalization translation, terminological discussion, semantic analysis*

KIRISH

Terminologiya (termin va ... logiya) — 1) 1) leksikaning bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmoqlari, san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlari majmui; 2) tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasi. Terminologiya tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksika. Masalan, fizika terminologiyasi, ijtimoiy siyosiy terminologiya, mashinasozlik terminologiyasi kabi. Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi. Uz navbatida u, umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

Qisqacha qilib ta'kidlaganda Terminologiya — ma'lum bir fan yoki soha ichidagi maxsus atama va tushunchalar to'plamidir. U o'ziga xos ma'no va kontekstdan kelib chiqib, bilimni tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim fannatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich — chalao'tkazgich — nimo'tkazgich terminlari qo'llanmoqda. Bu, o'z



navbatida, o'qish o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega. Har bir bilim sohasining terminologiyasi kasbiy bilimlarning kontseptual aloqalari asosida quriladi. Terminologiya atamalarining tizimli to'plami sifatida ma'lum bir bilim sohasi tushunchalari tizimini og'zaki ravishda cheklaydi va mustahkamlaydi.

Har bir termin ma'lum bir tushunchani ifodalaydi. Atama orqali ifodalangan fikr yoki ma'lumot.

Terminologiyaning ahamiyati bir nechta asosiy jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. Aniq muloqot Terminologiya soha ichida muloqotni soddalashtiradi va soha ichidagi mutaxassislar o'rtasida aniq va tushunarli muloqotni ta'minlaydi. Har bir atama o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, noaniqlik va tushunmovchilikni kamaytiradi.

2. Bilim tizimlashtirish

Terminologiya, ma'lum bir fan yoki sohadagi bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi. Atamalar orqali tushunchalar va faktlar o'zaro bog'lanadi, bu esa ilmiy izlanishlarni yanada samarali qiladi.

3. O'qitish va ta'lim

Terminologiya o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida to'g'ri terminlarni ishlatish, talabalarga mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi va kelajakda professional faoliyatlarida muvaffaqiyat qozonishga imkon beradi.

4. Kross-madaniy muloqot

Terminologiya turli tillar va madaniyatlar o'rtasida muloqotni osonlashtiradi. Maxsus atamalarni tarjima qilish va muvofiqlashtirish, xalqaro hamkorlik va ilmiy aloqalarni kuchaytiradi.

5. Iqtisodiy va texnologik rivojlanish

Terminologiyaning aniq belgilanishi va qabul qilinishi, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. U ilmiy va texnik sohalarda muvofiqlikni ta'minlaydi, bu esa rivojlanish jarayonini tezlashtiradi.

6. Huquqiy va tashkiliy asos

Terminologiya huquqiy hujjatlarda va normativ aktlarda to'g'ri tushunish va qo'llash uchun zarur. Aniq belgilangan atamalar huquqiy tartibni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

7. Professional identifikatsiya

Terminologiya, bir sohadagi mutaxassislarga o'zlarini aniqlash va professional identifikatsiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Maxsus atamalar ularning malakasi va tajribasini aks ettiradi.

Xulosa qilib terminologiyaning ahamiyati, bilim va axborot almashinuvi jarayonini samarali tashkil etishdan tortib, kross-madaniy muloqotni osonlashtirishgacha, keng qamrovli va har jihatdan muhimdir. Bu jarayonlar ilmiy,



ta'lim va amaliy sohalarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir. Globalizatsiya jarayoni yangi atamalar va tushunchalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Misol uchun, "kiberxavfsizlik", "barqaror rivojlanish" kabi terminlar zamonaviy muammolarni ifodalaydi.

G'arbiy terminlarning sharqiy madaniyatlarda qanday qabul qilinishi va o'zlashtirilishi tahlil qilinadi. Bu jarayonda madaniy aloqalar nafaqat iqtisodiy, balki ilmiy va ijtimoiy sohalarda ham aks etadi. Ba'zi atamalar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi, boshqalari esa madaniy kontekstga mos ravishda o'zgartiriladi. G'arbiy terminlarning sharqiy madaniyatlarda qabul qilinishi va o'zlashtirilishi murakkab jarayon bo'lib, ko'pincha madaniy kontekstga bog'liq. Masalan, "internet" atamasi ko'pchilik sharqiy tillarga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi va shu nom bilan ishlatiladi. Biroq, "leadership" (rahbarlik) kabi atama esa, madaniy kontekstga qarab, "rahbar" yoki "yetakchilik" tarzida o'zgartirilishi mumkin.

Yana bir misol, "brand" (brend) atamasi G'arbda kuchli marketing tushunchalari bilan bog'liq bo'lsa, Sharq madaniyatlarida bu atama ko'proq mahsulot yoki xizmatning obro'siga bog'liq ravishda qabul qilinishi mumkin. Bunday o'zgarishlar, madaniyatlararo muloqot va iqtisodiy aloqalar o'sishi bilan yanada chuqurlashadi.

Shuningdek, ba'zi atamalar o'z dastlabki ma'nosidan chetga chiqib, yangi kontekstda yangi mazmun kasb etishi ham mumkin. Masalan, "sustainable development" (barqaror rivojlanish) atamasi Sharqiy madaniyatlarda ekologik va ijtimoiy aspektlar bilan birga iqtisodiy barqarorlikka ham qaratilgan holda qabul qilinadi.

Globalizatsiya jarayonida ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar almashinuvi, terminologiya rivojlanishiga ta'sir qiladi. Misol uchun, "aqlli shahar" (smart city) kabi terminlar zamonaviy texnologiyalarni ifodalaydi. Bunga yana bir misol "blockchain" (blokcheyn) atamasi dastlab G'arbda paydo bo'lib, keyinchalik uning konseptual asoslari ko'plab sharqiy mamlakatlarda o'rganila boshlandi. Ushbu atama dastlabki moliyaviy texnologiyalar kontekstida ishlatilsa, hozirda bu termin ko'plab sohalarda, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash va davlat boshqaruvida ham qo'llanilmoqda. Bundan tashqari, "artificial intelligence" (sun'iy intellekt) atamasi global miqyosda keng tarqaldi. G'arbda bu soha rivojlanayotgan bo'lsa, Sharqiy mamlakatlar ham o'z tadqiqotlarini olib borish va innovatsiyalarni joriy etish orqali bu terminni o'zlashtirgan. Shu tariqa, sun'iy intellekt bilan bog'liq yangi atamalar, masalan, "machine learning" (mashinalar o'rganishi) va "deep learning" (chuqur o'rganish) kabi terminlar ham o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Bu jarayonlar ilmiy va texnologik yangiliklarning xalqaro hamjamiyatga tarqalishida va har xil madaniyatlarda yangi tushunchalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Globalizatsiya sharoitida terminologiya nafaqat yangi bilimlarni ifodalash, balki madaniy almashinuvni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Sharq va G'arb terminlarining tarjima jarayoni ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Ba'zi atamalar faqat bitta madaniyatda mavjud bo'lishi mumkin, bu esa



ularni boshqa madaniyatga moslashtirishni qiyinlashtiradi. Masalan, "zen" atamasi. Bu atama Yapon buddizmida chuqur meditatsiya va tushuncha jarayonini ifodalaydi. G'arbda bunday konseptlarni ifodalovchi aniq ekvivalentlar mavjud emas, shuning uchun "zen" so'zi o'ziga xos ma'nosi bilan qabul qilinadi, lekin u G'arb madaniyatidagi meditatsiya yoki ruhiy tinchlik tushunchalari bilan to'g'ri mos kelmaydi. Bunday holatlarda tarjimonlar ko'pincha izoh berish, yoki kontekst orqali ma'noni ochib berishga harakat qilishadi, lekin bu jarayon ham har doim muvaffaqiyatli bo'lmaydi.

Terminlar o'ziga xos madaniyatning talablari va qadriyatlariga mos ravishda o'zgarishi mumkin. Misol uchun, G'arbda ishlatiladigan "individualizm" termini Sharq madaniyatida boshqacha talqin qilinadi.

Terminlarning o'ziga xos madaniyatning talablari va qadriyatlariga mos ravishda o'zgarishi haqida misol sifatida "samarqand" atamasini keltirish mumkin.

Samarqand o'zining tarixiy ahamiyati va madaniy merosi bilan tanilgan shahar, bu atama Sharqda muhim madaniy va tarixiy kontekstga ega. Sharqda "samarqand" atamasi nafaqat shaharni, balki o'zbek xalqining tarixi, san'ati va qadriyatlarini ifodalaydi.

G'arbda esa, Samarqand atamasi ko'pincha Ipak yo'lidagi savdo markazi sifatida, shuningdek, eksotik va sirli madaniyat ramzi sifatida qabul qilinadi. Bu yerda atamaning mazmuni G'arb madaniyatida o'zgarib, tarixiy ahamiyatdan ko'ra ko'proq romantik va ekzotik ma'noga ega bo'ladi.

Shunday qilib, bir terminning ma'nosi va qabul qilinishi har ikki madaniyatdagi talablarga va qadriyatlarga mos ravishda o'zgarishi mumkin.

Terminologiya, til va fanlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega. U bir necha jihatdan til va fanlararo muloqotni yengillashtiradi va samarali qiladi.

Terminologiya, o'ziga xos atamalar va tushunchalar yordamida, muayyan soha yoki fan ichida aniqlik va tushunarlilikni ta'minlaydi. Masalan, ilmiy tadqiqotlarda yoki texnik sohalarda aniq va izchil terminlar ishlatilganda, mutaxassislar o'rtasidagi muloqot yanada samarali bo'ladi. Bu terminlar tushunchalarning to'g'ri va aniq ifodalanishini ta'minlaydi.

Terminologiya fanlararo muloqotda o'zaro ta'sirni kuchaytiradi. Masalan, biologiya va kimyo sohalarida ishlatiladigan terminlar bir-birini to'ldirib, ilmiy tadqiqotlarda yangi g'oyalar va yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu, shuningdek, yangi sohalarining paydo bo'lishiga ham olib keladi, masalan, biokimyo yoki biotexnologiya.

Terminologiya turli madaniyatlar va tillar o'rtasidagi aloqalarni osonlashtiradi. Globalizatsiya sharoitida, terminlar boshqa tillarga tarjima qilinyotganda, ularning madaniy konteksti va ahamiyati hisobga olinishi kerak. Bu jarayon, turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlikni kuchaytiradi.

Terminologiya yangi g'oyalar va innovatsiyalarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Yangi texnologiyalar yoki ilmiy kashfiyotlar paydo bo'lganda, ularning tavsifi uchun



yangi terminlar ishlab chiqiladi. Bu jarayon, o'z navbatida, yangi ilmiy izlanishlar va innovatsion yechimlarga olib keladi.

Terminologiya, til va fanlararo muloqotda aniq va izchil kommunikatsiyani ta'minlab, yangi g'oyalar va tushunchalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu, o'z navbatida, global hamkorlik va madaniyatlararo aloqalarni kuchaytiradi. Terminologiyani muhimligini tushunish va uni samarali ishlatish, ilmiy va madaniy rivojlanishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa: Bu jarayonni yanada chuqurroq o'rganish, terminologiya va madaniyatlararo aloqalar o'rtasidagi bog'liqlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Terminologiya, madaniyatlararo aloqalar va globalizatsiya o'rtasidagi bog'liqlik bugungi kunda murakkab va ko'p qirrali masala hisoblanadi. Globalizatsiya jarayoni turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro aloqalarni kuchaytiradi, bu esa yangi terminlarning paydo bo'lishiga va mavjud atamalarning kontekstual o'zgarishiga olib keladi.

Madaniyatlararo aloqalar, o'z navbatida, terminologiyani boyishiga va ko'plab yangi tushunchalar kiritilishiga sabab bo'ladi. Biroq, bunday o'zgarishlar muammolarsiz emas. Ba'zi terminlar bir madaniyatda ijobiy, boshqasida esa salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkin, bu esa tarjimada noaniqlik va chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, terminologiyani to'g'ri tushunish va uni madaniy kontekstda izohlash muhim ahamiyatga ega. Madaniyatlararo aloqalar va globalizatsiya ta'siri terminologiyani rivojlantirishda va uning qabul qilinishida muhim rol o'ynaydi, bu esa yangi muloqot shakllarini va global kommunikatsiyani yanada murakkablashtiradi. Madaniyatlararo o'zaro ta'sirni chuqur o'rganish, kelajakda global hamkorlik va muloqotni yanada mustahkamlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES

1. Hall, S. (1997). Representation: Cultural Representations and Signifying Practices. Sage Publications.
2. Giddens, A. (2000). Runaway World: How Globalization is Reshaping Our Lives. Routledge.
3. Tomlinson, J. (1999). Globalization and Culture. University of Chicago Press.
4. Appadurai, A. (1996). Modernity at Large: Cultural Dimensions of Globalization. University of Minnesota Press.
5. Bhabha, H. K. (1994). The Location of Culture. Routledge.
6. Hannerz, U. (1996). Transnational Connections: Culture, People, Places. Routledge.



SITALL XOMASHYOSINING FIZIK VA KIMYOVIY XUSUSIYATLARINI TAHLIL QILISH

Rajabova M.M – *mustaqil tadqiqotchi*

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

O'zbekiston, Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15-uy

Aslonov B.M – *o'qituvchi-stajor,*

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

O'zbekiston, Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15-uy

Annotatsiya: *Sitall xomashyosi haqida gapirsak texnik sital xomashyosi ko'p komponentli, sanoat chiqindisi va tog' jinslari asosida olinadigan, qurilish sital xomashyosi esa kam komponentli bo'ladi.*

Texnik sitallarni olishda kvarts qumi, oxaktosh, soda, potash kabi xomashyo turlari ko'p ishlatiladi. Shisha olishda ular boyitiladi, temir birikmalari sitall ishlab chiqarishda katalizator vazifasini o'taydi. Bu esa sitall tannarxining pasayishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: *shixta, osid, natriy-kremniy, xrom, titan, sitall, kristallash, DTA.*

Shixtaga katalizatorlar metall, oksid va turli birikmalar holida qo'shiladi. Xrom va titan xrom (III) oksidi va titan (IV) oksidi formulasida kiritiladi. Fotositall olishda esa ularning o'rniga 0.002—0.2 % miqdorda kumush xlorid, 0.1—0.3 % kumush sulfat, 0.001—0.11 % oltin xlorid, qo'shiladi. Agar shisha shixtasi tarkibiga fluor qo'shish kerak bolsa, u kriolit yoki natriy-kremniy fluoridi shaklida kiritiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, sitall shixtasi shisha shixtasidan tarkibiga kristallashga xizmat qiluvchi katalizatorlar qo'shilganligi bilan farqlanadi. Ammo xomashyolarni maydalash, quritish, sortlash kabi jarayonlar shishasozlikda ham, sitall ishlab chiqarishda ham bir xildir.

Shixtani eritish shishasozlik texnologiyasi jarayonlari kabi kechadi. Hosil bo'lgan shishaning tiniq va yuqori sifatli bo'lishi sitallning ham sifatli qilib olinishini ta'minlaydi.

Shishalarni kristallash jarayoni muhim va murakkabdir. Kristallash nuqtalarini to'g'ri aniqlash esa o'ta muhim hisoblanadi. Aks holda buyum qo'yilgan talablarga javob bermaydi.

Sitall ishlab chiqarishda buyumga past temperaturada bir necha soat davomida ishlov beriladi. Shu vaqt ichida kristallash katalizatorlari shisha massasidan ajralib chiqadi va juda ko'p miqdordagi kristallash markazlarini hosil qiladi.

Sitall kristallarining markazlarini maksimal darajada hosil qiluvchi temperatura differentsial termik analiz orqali aniq topiladi. U DTA chizig'idagi issiklik yutish, ya'ni endotermik effekta pikiga to'g'ri keladi (turli tarkibli sitallar uchun 600—1000°C). Bunday sharoitda gomogen shisha massasidan katalizatorlar ajralib chiqadi. Ularning o'lchami 10—100A bo'lganligi tufayli shishaning tiniqligi va shaffofligi buzilmaydi.



Keyingi operatsiya — katalizator markazlari atrofida sitall kristallarini o'stirishni ta'minlash uchun utdondagi temperatura 200—300°C ga oshiriladi (800— 1250°C) va shu sharoitda shishaga 1—4 soat davomida ishlov beriladi. Bu vaqt ichida kristallanish markazlari atrofida asosiy kristall faza o'sa boshlaydi va uning o'lchami 0.1 — 1 mkm bo'lganda bir-biri bilan to'qnashadi. Kristallarning o'sish temperaturasi ham DTA chizig'i orqali aniqlanadi. U DTA chizig'idagi issiqlik chiqarish, ya'ni ekzotermik effektga to'g'ri keladi.

Sanoat chiqindilari va tog' jinslari asosida sitall olishda ularning tarkibiga aniqlik kiritiladi va ko'pincha tarkibni piroksen yoki melilit kristallari tarkibiga to'g'irlab quyiladi. Ulardan xuddi yuqorida aytganimizdek avval shisha, so'ngra bir yoki ikki usul bilan termik ishlov berib, kerakli tarkibga ega bo'lgan rangli sitall materiallari olinadi. Tog' jinslari bazalt, piroksen, melilit va boshqalardan ham sitallar olish shlakli sitall olishga o'xshash bo'lib, shu jinslarning kristallanishga bo'lgan qobiliyatini to'la o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Sitallning xossalari. Sitallar shishalarga nisbatan yuqori fizik-kimyoviy xossalarga ega. Quyidagi jadvalda shlakli sitallning boshqa buyumlarga taqqoslangan holati keltirilgan.

Shlakli sitall va ba'zi bir boshqa materiallarning asosiy xossalari

Ko'rsatki ch	Shl akli sitall	De raza oy na	B eton	Cho 'yan	Elektrote xnika chinnisi	Ba zalt Quyma tosh
Solishtir ma og'irligi, kg /m ³	26 00- 28 00	25 00	22 00- 26 00	710 0- 780 0	2500	20 00— 30 00
Suv yutuvchanligi,, %	0	0	-	0	2-6	0.2
Issiqlikka chidamliligi ,C	20 0-250	10 0	-	-	-	-
Issiqlikda n kengayish koeffitsiyenti, $\alpha 10^7, C^{-1}$	65- 85	89	10 0	100	-	80- 100
Yumshas hning boshlanish temperaturasi, °C	95 0	85 0-570	-	-	-	10 50
Mustahka mlik chegarasi	90- 130	70	-	280	55	47- 80



,MPa, statik egilish bo'yicha						
Siqilish bo'yicha	70 0-900	60 0-700	5- 60	800 -1000	-	25 0-500
Ishqalanis hga qarshilik ,g/sm ²	0.0 15- 0.025	0.5 -0.6	-	-	0.1-0.25	0.0 2-0.08
Ishqalanis hga chidamlilik ,g/mm ²	18 2	-	-	-	12.5	10 5
Yung moduli ,G/Pa	93	60- 70	-	100 -130	-	-
Mikroqatt iqlik, GPa	8.1 -8.4	4-6	-	2	5	-
Kimyoviy turg'unligi, %						
96% li H ₂ SO ₄	99. 8	-	-	-	-	99. 9
20% li HCl	98- 99.8	-	-	-	-	98. 5
35% li NaOH	74. 7-90	-	-	-	-	98. 5

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исмамов А. А. Сунъий тошлар. — Тошкент: Фан, 1980. — 56 б.
2. Исмамов А. А. Гилдан чиннига. — Тошкент: Фан, 1986. — 60 б.
3. Химическая технология керамики и огнеупоров / Под общ. ред. Будникова П. П. и Полубояринова Д. Н. — Москва: Стройиздат, 1972. - 552 с.
4. Химическая технология стекла и ситаллов / Под общ. ред. Павлушкина Н. М. — Москва: Стройиздат, 1983. — 432 с.
5. Бобкова Н. М., Дятлова Е. М., Куницкая Т. С. Общая технология силикатов. — Минск: Высшая школа, 1987. — 288 с.



SURXONDARYO VILOYATI O'RTA HUDUDI ISSIQXONALARIDA YETISHTIRILUVCHI LIMON NEMATODA FAUNASI TARKIBI VA TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

B. B. Jumayev

Annotatsiya. Maqolada Surxondaryo viloyati o'rta hududidagi issiqxona o'stiriluvchi limon o'simligi nematodafaunasi tarkibiga kiruvchi turlarning bioekologik xususiyatlari keltirilgan. Limon o'simligi va uning ildizi atrofida tuproqda uchrovchi nematoda faunasidagi aniqlangan 51 tur, ularning ovqatlanish usuli, o'simliklar bilan munosabati va ekologik klassifikatsiyasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Fitonematoda, parazitlar, pararizobiontlar, eusaprobiontlar, devisaprobiontlar, mikogelmintlar.

Abstract: The article describes the bioecological conditions of the species of nematoda fauna of the lemon plant, which grows in a greenhouse in the Surkhandarya region. The 51 species identified in the nematoda fauna encountered in the struggle around the lemon plant and its roots, their method of use, their relationship with plants, and their ecological classification are given.

Keywords: In phytonemato, parasites, parasisobionts, eusaprobionts, devisaprobionts, mycohelminths.

Olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumani Ulug'bek, Munchoqtepa, Jiydali, Bog'aro mahallalaridagi issiqxona sharoitida o'stiriluvchi limon o'simligining ildiz va uning atrofida tuproq qatlamida topilgan nematodalar 51 turni tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

Aniqlangan turlarni yashash joylari, ovqatlanish usuli va o'simliklarga munosabati hamda boshqa qator xususiyatlariga ko'ra bir necha ekologik guruhlariga ajratiladi. Nematodalarni ekologik klassifikatsiyaga solishda prof. A.A Paramonov (Paramonov, 1962, 1964) tomonidan ishlab chiqilgan hamda amaliyotda keng qo'llaniladigan prinsip eng qulay hisoblanadi. Ushbu prinsipga binoan limon o'simligining nematoda faunasi tarkibidagi turlar pararizobiontlar, eusaprobiontlar, devisaprobiontlar, mikogelmintlar va parazit fitogelmintlar ekologik guruhlariga ajratildi.

Pararizobiontlar, o'simlik ildizi atrofida rizoferasi tuprog'i qatlamlarida yashovchi nematodalar. Limon o'simligi nematoda faunasi tarkibida pararizobiontlar 8 turni tashkil etdi. Ushbu guruh vakillarining hayot kechirish tarzi, oziqlanish usuli, ozuqasi turi va o'simliklarga nisbatan munosabatlariga ko'ra 3 ta kichik guruhlariga ajratiladi:

a) erkin yashovchi pararizobiontlari. Ushbu kichik guruhga kiruvchi nematodalarning anchagina turlari nam tuproqda, ba'zan chuchuk suvlarda ham yashashga moslashgan. Bundan tashqari ular o'simlik tanasiga tasodifan kirib qolishi



mumkin, lekin unga salbiy ta'sir ko'rsata olmaydi, chunki ularning ovqati o'simlik qoldiqlari, turli tuman mikroorganizmlar hisobidan bo'ladi. Erkin yashovchi pararizobiontlar limon nematodafaunasi tarkibida 2 turdan iborat bo'ldi. Ushbu kichik guruhga mansub *Monhystera paludicola*, *Monhysterasimilis* kabi turlar rizosfera tuprog'i qatlamlarida qayd etildi.

b) fitofag pararizobiontlar kichik guruhiga mansub nematodalarning o'ziga xosligi og'izbo'shlig'ida nayza yoki ayrim avlodlarining turlarida sanchib so'ruvchi naysimon stiletga egaligidir. Shunga binoan bunday pararizobiontlar asosan rizosfera tuprog'ida yashasa ham, ba'zan o'simlik tanasiga o'tib, uning shirasi bilan oziqlanishga kirishadi. Bizning materialimizda fitofag pararizobiontlar *Eudorylaimus monhystera*, *Aglenchus agricola*, *Aglenchus bryophilus*, *Tylenchus filiformis*, *Tylenchus bryophilus*lardan (5 tur) iborat bo'ldi.

c) yirtqichlik bilan oziqlanuvchi pararizobiontlar kichik guruhi. Ushbu nematodalarning og'iz bo'shlig'ida nayza yoki xitinlashgan og'iz kapsulasi, ba'zan xitinlashgan tishchalar shakllangan. Yirtqich pararizobiontlar ko'p hollarda mayda nematodalar va ularning lichinkalari (parazit turlarning ham lichinkalari) bilan ovqatlanadi. Bundan tashqari ular ba'zan o'simliklarning vegetativ a'zolariga ham o'tib, undagi mikroskopik hayvonlarni ham iste'mol qilishi isbotlangan. Bizning materialimizda limon nematoda faunasi tarkibida eng kam uchrovchi pararizobiontlar hisoblanadi. Yirtqich pararizobiontlar faqat 1 tur – *N. golaimus brachyuris* dan iborat bo'ldi.

Shunday qilib, erkin yashovchi tuproq nematodalari yoki pararizobiontlarning asosiy yashash va tarqalish joyi rizosfera tuprog'i qatlamlari hisoblansa ham, ularning ayrim turlari o'z individlari bilan limonning ildiz sistemasida ham namoyon bo'lishdi.

Eusaprobiontlar yoki o'simliklarning zararlangan va chiriyotgan joylarida, shuningdek tuproqning turli hayvon qatlamlarida mavjud bo'lgan saprobiotik manbalarda yashashga moslashgan hamda organik chirindi bilan ovqatlanuvchi nematodalar hisoblanadi. Tadqiqotlar davomida limon nematodafaunasi tarkibida eusaprobiontlar *Diplogaster*, *Diplogasteritus*, *Diplogastrellus* avlodlariga mansub 5 ta turni o'z ichiga oldi. Eusaprobiontlarga mansub turlar fauna tarkibida ancha yuqori sondagi individlari bilan qayd etildi. Ayniqsa *Rhabditis* avlodiga mansub turlarning individlari katta sonda ildiz sistemasida ham uchratildi. Bu holat limon o'simligi ildiz sistemasining ba'zi joylarda saprobiotik jarayonlar mavjudligidan dalolat beradi. Eusaprobiontlarning biotoplar bo'yicha tarqalishiga e'tibor bersak, tuproqning quyi 20 – 30 sm li qatlamiga tushgani sayin ularning individlari sezilarli ravishda kamayib borgan. Turlarning rizosfera qatlamlarida bunday notekis taqsimlanishini avvalo tuproq tarkibidagi gumus miqdorining yuqori qatlamlarda nisbatan ko'p bo'lishi bilan tushuntirish mumkin.

Devisaprobiontlar. Ushbu guruh turlarining xususiyatlari shundan iboratki, ular tuproqda erkin yashab ba'zan chirish jarayoni borgan manbalarda, shuningdek



ko'p hollarda o'simliklarning sog'lom vegetativ a'zolarida ham uchrovchi nematodalar hisoblanadi. Tadqiqot o'tkazilgan hududlarda limon o'simligi nematoda faunasi tarkibida devisaprobiontlar 11 turni tashkil etdi. Devisaprobiontlar ovqatlanish usuli, ovqat turi va o'simliklarga nisbatan munosabatiga binoan 2 ta kichik guruhga ajratiladi.

Birinchi kichik guruh vakillari o'simliklarning kasallangan qismlarida, o'simlik qoldiqlarining tuproqda chiriyotgan manbalarida yashab, chin saprobiont nematodalar singari chirindi bilan ovqatlanadi. Limon o'simligi nematodafaunasi tarkibida ushbu kichik guruh devisaprobiontlari *Plectus*, *Cephalobus*, *Acrobeloides*, *Cervidellus*, *Panagrolaimus* avlodlariga mansub 8 turdan iborat bo'ldi. Ushbu kichik guruhga mansub turlarning individlari asosan tuproqning 10 sm li qatlamidan ajratib olindi.

Devisaprobiontlarning ikkinchi kichik guruhi - fitofagsaprobiontlar 3 ta (*Eucephalobus* va *Chiloplacus* avlodi turlari) turdan iborat bo'ldi. Ushbu kichik guruh devisaprobiontlari limonning rizosferasi tuprog'ida hamda ularning vegetativ a'zolarida ko'plab sonda uchratildi. Ularning bunday tarqalishi va yashashiga imkoniyat beruvchi ayrim moslanishlarigaboshida nisbatan qattiq va bo'rtib chiqib turuvchi organi bo'lganligi va shu organi yordamida o'simlik to'qimasini shikastlashi va oziqlanishi mumkinligi kiradi.

Mikogelmintlar – nospetsifik parazitlar guruhi 14 turdan iborat bo'lib, bular *Aphelenchus*, *Paraphelenchus*, *Seinura* va *Ditylenchus* avlodlari vakillaridan iborat bo'ldi. Mikogelmintlarning ekologik xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular aslida saprobiotik jarayoni mavjud bo'lgan manbalarda uchraydi va undagi zamburug' mitseliylari bilan ovqatlanadi. Ba'zan o'simliklarning vegetativ a'zolarida mavjud bo'lgan zamburug'lar orasida to'planib turadi. Bunday turlarni sanchuvchi stileti kichik va nozik bo'ladi.

Parazit fitogelmintlar – chin parazit fitonematodalar. Issiqxona sharoitida o'stiriluvchi limon nematoda faunasi tarkibida 13 turni tashkil etdi. Ushbu nematodalarning bir qator xususiyatlari, jumladan ovqatlanish usuli va ovqat turi hamda o'simliklar bilan munosabatlariga binoan ikkita kichik guruhga, ya'ni rizosfera tuprog'ida yashab, o'simlik shirasi, epidermis hujayralari yoki ildiz tukchalari bilan ovqatlanuvchi ektoparazit va endoparazit fitonematodalarga ajratildi (Yeates, 1993). Ektoparazit nematodalar limon nematoda faunasining 10 turini tashkil etib, *Aphelenchoides*, *Tylenchus*, *Paratylenchus* avlodlari vakillaridan iborat bo'ldi. Ushbu kichik guruh parazitlar kuchli va yirik stiletgacha egadir. O'simlik vegetatsiya davri boshlanishi bilanoq yosh ildizlarni hosil qiladi va parazitlar ana shu yirik stileti yordamida o'simlik ildizi to'qimalarini tashqaridan turib teshib, shirani so'rib oladi. Yirik stileti faqatgina yosh ildizlarni teshishga yordam beradi, chunki ushbu turdagi ildiz po'sti yupqa bo'ladi. Ikkinchi yilgi ildizlarning po'sti qalin bo'lganidan yirik stileti parazitning ildiz tizimiga kirib borishiga yordam bera olmaydi. Lekin ayrim hollarda ularning ayrim individlari ildiz ichiga ham kirib ovqatlanishni davom ettiradi, shuning uchun ektoparazitlar guruhiga kiruvchi



ayrim parazit nematodalar yarim endoparazitlar sifatida ham talqin etiladi (Yeates, 1993). Fitogelmintlarning ikkinchi kichik guruhi-endoparazit nematodalar bo'lib, ular limon nematoda faunasi tarkibida 3 turni tashkil etdi. Ushbu turlar *Ditylenchus dipsaci*, *Pratylenchus crenicanda*, *Tylenchulus semipenetrans*lardan tashkil topdi.

Olib borilgan tadqiqotlarning muhim ilmiy ahamiyatlaridan biri limon o'simligi nematodasi faunasida endoparazitlardan limonning xususiy paraziti *Tylenchulus semipenetrans* qayd etilganligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Парамонов А.А. Основы фитогельминтологии. т. I Москва, Изд-во АН СССР. 1962. стр. 338-369.
2. Парамонов А.А. Основы фитогельминтологии. т. II Москва, Изд-во «Наука».1964. стр. 446.
3. Тулаганов А.Т., Усманова А.З. Фитонематоды Узбекистана часть 1 Изд-во «ФАН» Уз. ССР, Ташкент. 1975. стр. 372.



FUQAROLARNING AXBOROTGA BO'LGAN HUQUQLARINI DAVLAT TOMONIDAN HIMOYA QILINISHI VA KAFOLATLANISHI

Obidov Feruzbek Umurzoqovich

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishining ahamiyati va sohani tartibga solib turuvchi normativ-huquqiy hujjatlar tavsifi hamda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar. *Fuqaro, ommaviy axborot vositasi, axborot, qonunlar, butunjahon internet tarmog'i, xalqaro huquqiy hujjatlar, konstitutsiya.*

XXI asrga kelib ommaviy axborot vositalari, xususan butunjahon internet tarmog'i jamiyat va davlatning rivojlanishi uchun bevosita hamda bilvosita hissa qo'shadigan kuchga aylanganiga guvoh bo'linmoqda. Ushbu sohani tartibga solish uchun qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlardan va/yoki islohotlardan davlat hokimiyati bo'linishida "to'rtinchi hokimyat" sifatida tan olina boshlangani bejizga emasligini tushunish mumkin. Internet jahon axborot tizimi ommalashib borayotgan bir paytda ommaviy axborot vositalari sohasining subyektlari huquqlarini himoya qilish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 27-iyunda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan nutqida qayd etilganidek, "eng tezkor axborot vositasi – Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozimligi. Hozirgi vaqtda global tarmoqda "Uz" domenli veb-saytlar, axborot portallari soni kun sayn oshib ketayotgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda ham faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovor¹"ligi ma'lum qilingan. Yangi avlodning hamda zamonga mos kasblarning shakllanishi natijasida tartibga solinishi lozim bo'lgan yangi munosabatlar vujudga keladi. Internet tarmog'ida deyarli har qanday faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu davlat chegaralaridan tashqariga chiqishda qonun buzilish sodir etish ehtimolining yuqori darajada ekanligi sababli internet tarmog'ini tartibga solishda hukumatning normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishdagi tezkorligi fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Dunyodagi so'nggi tendensiyalar shuni ko'rsatmoqdaki deyarli barcha rivojlangan davlatlarda internetdan foydalanish bilan bog'liq nizolarni ushbu mamlakatning axborot sohasini tartibga soluvchi normalarni qo'llagan holda chora ko'rish amaliyoti keng qo'llanilmoqda².

¹ Ш.Мирзиёев "Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз". – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017. – 592 б.

² В.О.Калятин «Проблемы установления юрисдикции в Интернете». "Законодательство", N 5, май 2001 г. <http://www.pravobooks.ru/pravolibRARYfree/245.html?ysclid=m0jlir25ut488436276>



Suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish, mamlakatda tenglik, adolat, erkinlikni vujudga keltirish, birinchi o'rinda fuqarolarni zarur hamda ishonchli axborotlar bilan ta'minlashni taqozo etadi. Islohotlar ko'p qirrali va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bunda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hamda olib borilayotgan islohotlarning sifati va samarasi ko'p jihatdan jamoatchilik fikrining holatiga bog'liq ekanligini hisobga olsak, uni shakllantirishda muayyan ijtimoiy institutlarga, xususan, ommaviy axborot vositalariga muhim o'rin beriladi³.

Hozirgi vaqtlarda davlat oldida OAVni jahon matbuotining eng ilg'or va zamonaviy andozalari darajasiga olib chiqish, so'z erkinligini ta'minlashda qonun ustuvorligini eng yuqori darajaga qo'yish, globallashuv davrida eng nozik masala bo'lgan axborotlar mazmun va mohiyatini o'zlikka, qadriyatlarga moslashtirish, turli buzg'inchilik, radikal hamda yot g'oyalarni davlatning axborot makoniga kirishiga yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga, milliy kontentlarni shakllantirishdek muhim vazifa turibdi.

Shiddat bilan shakllanib kelayotgan hozirgi axborot jamiyatida OAVga faqatgina axborot olishning oddiy vositasi sifatida qaralmasligi. Bunday sharoitda mazkur institut nafaqat ommaviy ongga ta'sir etish imkoniyatiga ega, balki jamiyatda yurish – turish va xulq atvor qoidalarini shakllantirishning muhim vositasi sifatida ham maydonga chiqishi mumkinligi ma'lum qilingan. Ommaviy axborot vositalari alohida institut sifatida nafaqat axborot sohasini tartibga solish bilan balki davlatning mudofaa hamda xavfsizlik sohalariga ta'sir qilishi mumkinligi bilan ajralib turadi.

B.P.Kuzmin OAVning jamiyatdagi asosiy rolini quyidagi ikki yo'nalishda, ya'ni jamiyatdan davlat hokimiyatiga va davlat hokimiyatidan jamiyatga qarab harakatlanadigan axborot oqimini yetkazish va ta'minlashda ko'radi⁴. Uning fikricha, ushbu vositadan har ikkila tomon ham o'zaro bir-biriga ta'sir etish uchun foydalanishi mumkinligini tushuniladi. Jamiyatdan davlat hokimiyatiga va davlat hokimiyatidan jamiyatga yo'naltiriladigan axborotlar aniq fakt va dalillarga asoslangan bo'lishi, berilayotgan ma'lumotlar jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid solmasligiga urg'u berilishi lozim. Shuningdek, A.I.Podberezkin va S.A.Abakumovlarning ta'kidlashicha, OAVning fuqarolik jamiyatini muhim tarkibiy qismi sifatidagi funksiyalarini amalga oshirishlari uchun, eng avvalo, ularning mustaqilligini ta'minlash lozim. Mustaqil OAV tizimining rivojlanishi hokimiyat organlarining obro'sini oshishiga, byurokratiyaga xos bo'lgan korrupsiya va nazoratsizlikni oldini olish hamda ushbu illatlarni barham toptirishga yordam beradi⁵. Ommaviy axborot vositalariga har bir davlat tashkiloti yoki jamiyat a'zolari "ko'zgu" sifatida qarashlari va qabul qilishlari lozim. Ikkinchi tomondan esa OAV ham o'zining funktsiya va majburiyatlarini qonunlar, qonun ostida

³ Ж.М.Абдуллаев «Фуқаролик жамиятини шакллантиришда оммавий ахборот воситаларининг роли (назарий-хуқуқий масалалари)». – Тошкент, 2008. – 185 б.

⁴ “СМИ в информационном взаимодействии власти и общества”. Материалы всероссийской конференции. (Москва, 17-18 марта 2005 г.) -М.: Издательство Хроникер, 2005. -С.272

⁵ Подберезкин А.И., Абакумов С.А. Гражданское общество и будущее Российского государства: в поиске эффективного алгоритма развития. -М.: «Имидж-Пресс», 2004. – С.17



hujjatlari hamda jamiyatda qabul qilingan odob-axloq qoidalaridan kelib chiqqan holda vazifalarini vijdonan bajarishlari kerakligi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2016-yilga qadar axborot sohasini tartibga solib turuvchi qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan, amaliy jihatdan ishlar olib borilmaganligi, axborot bilan bog'liq munosabatlarga xorijiy va milliy qonunchilikda nazarda tutilgan va belgilangan darajada amal qilinmaganligini kuzatish mumkin.

Yurtimizda fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishida ko'plab xorijiy va milliy huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlari "Fuqaqolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Paktning 19-moddasida tartibga solinganligi, unda "har bir inson hech bir to'siqsiz o'z fikriga sobit bo'lish huquqiga ega ekanligi; har bir inson o'z fikrini erkin bayon etish huquqiga ega; bu huquq davlat chegaralaridan qat'i nazar yozma ravishda yoki matbuot orqali yoki ifodalashning badiiy shakllari yoki o'z ixtiyoriga ko'ra boshqacha usullarda turli axborot va g'oyalarni qidirish, olish va tarqatish erkinligini qamrab olishi; yuqoridagilarni nazarda tutgan huquqlardan foydalanish alohida majburiyatlar va alohida mas'uliyat yuklashi, ayrim cheklashlar qonun bilan belgilanishi va quyidagilar uchun zarur bo'lishi lozimligi belgilab qo'yilgan:

- a) boshqa shaxslarning huquqlari va obro'-e'tiborini hurmat qilish uchun;
- b) davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligi yoki ma'naviyatini muhofaza etish uchun.”⁶

